

Begali Qosimovning Jadid Matbuoti Masalasiga Yondashuv Mezonlari

Tojiboyeva Muqaddas Abdurahimovna¹, Bektasheva Gulbahor Rayimjonovna²

Annotatsiya: Maqlada adabiyotshunos olim, professor Begali Qosimovning XX asr o'zbek matbuoti, xususan, gazeta va jurnallarning faoliyatiga munosabati yoritilgan. B.Qosimov jadid adiblarining ijtimoiy-siyosiy, adabiy-estetik qarashlari xususida asosli mulohazalarni ilgari surish uchun vaqtli matbuot sahifalarini jiddiy o'rghanadi. Vaqtli matbuotdagi maqlalarning aksariyatida ijtimoiy fikr uyg'unligini "shaxsiy har qanday cheklashdan ijtimoiy adolatgacha bo'lган masalalar adabiyotning kun tartibiga qo'yilgan"likda izohlaydi.

Olim jadid ijodkorlari, ularning katta-kichik asarlari, maqlalari xususidagi qarashlarini ifoda etishda davr milliy matbuotidan birlamchi manba sifatida foydalanadi. B.Qosimov "Turkiston viloyatining gazeti" faoliyatini o'rganish jarayonida unda chop etilgan maqlalarning davr adabiy va ijtimoiy hayotida tutgan o'rniga ko'ra belgilab boradi va millat, adabiyot taqdirida ayricha o'rin tutgan maqlalarni alohida tahlilga tortadi.

Kalit so'zlar: jadid matbuoti, siyosiy ong, jadidchilik, o'zbek jadid tanqidchiligi, jurnal, gazeta.

Ma'lumki, jadid matbuotida o'lkaning turmushi, milliy taraqqiyot bilan bog'liq masalalar, milliy adabiyotning, jadid publisistikasining shakllanishi va taraqqiy qilishi aks etadi. "Adabiy jarayon hodisalarini va adiblarning ayrim asarlarini tahlil etib, ularning qimmatini keng ommaga tushuntirib berishga va ommanning estetik didini tarbiyalashga mo'ljallangan tanqid o'z o'quvchisiga vaqtli matbuot orqali murojaat etadi. Xalq va uning adabiyoti tarixida boshlanayotgan yangi davrlarda bu xususiyat, ayniqsa, bo'rtib ko'rindi. Yangi uyg'onish davri hisoblangan XX asr tongidagi o'zbek jadid tanqidchiligi, Istiqlol arafasi hamda Mustaqillikning dastlabki yillardagi o'zbek tanqidchiligi tarixi buning yorqin dalilidir. [1.B.26].

Professor B.Qosimov o'z tadqiqotlarida jadid matbuotchiligin "1905-yildan keyin 17-oktabr Manifesti bergen ma'lum erkinliklar samarasi" sifatida maydonga kelganligi, Turkistondagi o'zbekcha nashr – "Turkiston viloyatining gazeti" bilan yonma-yon Usmonli turk, Kavkaz, Volgabo'yli matbuotchiliginining ham ahamiyati katta bo'lganligini ta'kidlaydi. Turkistonda davriy matbuot aslida jadidlardan oldinroq 1870-yilda paydo bo'lganligiga diqqatni qaratsak, B.Qosimov bu davrda matbuot ruslarning harbiy istilochilik siyosatiga xizmat qilganligini aytib o'tadi. Domla davr matbuoti borasida mutaxassislarning fikrini o'rganar ekan, "Ziyo Said 1870-1902-yillarda chop etilgan gazeta-jurnallar haqida fikr yuritganda, 45ta gazeta, 36ta jurnalning nomini tilga oladi", - deb yozadi.[2.B.53]

B.Qosimov asr boshlaridagi jadid harakatchiligi matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga yo'naltira olganligini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham davr matbuotchiligiga ayricha e'tibor qaratadi. Olim jadid matbuotini o'rganar ekan, Turkistondagi jadidchilikka tatar matbuotining ta'siri ayricha bo'lganligini qayd etadi. Jumladan, 1904 yilda "Al-asr al-jadid" jurnalni, 1905 yili "Qozon muxbiri", "Nur", 1906 yili "Ulfat", "Ishchilar dunyosi", "Ulug' Turkiston", "Yulduz", "Ozod" gazetalari, ayniqsa, "Vaqt" gazetasini Sharq dunyosida shuhurat topganligini alohida ta'kidlab o'tadi.[3.B.51] Birinchi tatar romani "Hisomuddin mulla"(1886)ning muallifi Muso Oqyigit Turkiyada o'qib kelib, "Mulkiya" gazetasini, 1900-1908-yillarda "Mir'ot" jurnalini chop etdiradi.[4.C.198-200]. Taniqli adib Fotih Karimi 1870-

¹ Andijon davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи mudiri, f. f. d., professor

² Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti



yilda “Vaqt” gazetasiga muharrirlik qiladi. B.Qosimov tadqiqotlarida ushbu gazetaning Turkiston hayotiga katta e’tibor bergani, O’zbek xalq me’morchiligidan tortib, adabiy-tarixiy, madaniy-muriy, ijtimoiy-siyosiy ahvoligacha keng yoritib borgani haqida ma’lumot beradi. Olim ushbu gazetada Turkiston hayoti haqqoniy manzaralarda aks ettirilgan “Idora nomidan yohud Sayyoh”, “Bir musofir”, “Samarqandiy”, “Buxoroli”, “A.F.”, “Qardosh”, “Muxbir” kabi imzolar bilan maqolalar chop etilgani, “Yo’ldosh o’g’li”, “Turkiston tuproqlari” maqolasida Rusiya mustamlakachilik siyosatini tanqid ostiga olingani, o’lkaning ichki Rusiyaga aylanib qolishidan turkistonliklarni g‘aflat uyqusidan uyg‘onmaganligi, birdamlik hissi barcha maqolalarining yetakchi ruhini tashkil qilgani haqida to’xtalib o’tadi.[5.B.53] Bundan tashqari, gazetada turkistonlik jadidlardan M.Behbudiyning “Faryodi Turkiston”, “Duma va Turkiston musulmonlari”, Abduqodir Shakuriyning “Turkistonda maktab va tarbiya” kabi maqolalari chop etiladi. B.Qosimov Behbudiyni ilm va maorifning nochor ahvolini, poraxo’rlikka asoslangan ish-idora usullarini keskin tanqid qilganligini ta’kidlaydi. B.Qosimov Behbudiyning “Duma va Turkiston musulmonlari” maqolasini tahlilga tortar ekan, unda “turkistonlarning siyosiy huquqlari ham cheklanganligi, misol sifatida davlat dumasiga xalqdan umuman vakil yuborilmagani, o’lkada yashovchi 70 ming ovro‘poli aholidan 6 kishi saylangani holda 7 millionni tashkil etgan mahalliy xalqqa atigi 5ta o‘rin ajratilgani”[5.B.54] dan Behbudiyning kuyunganligini jamiyatdagi har bir siyosiy jarayonga jadidlarning bee’tibor bo’lmaganligi bilan izohlaydi. Bundan tashqari, olim bu davrda chop etilgan gazet-jurnallarning katta-yu kichigini kuzatadi, ularni mavqeini belgilaydi. Xususan, Uralsk (1907, 1- iyun, “O’qlar” jurnali), Astraxan (1907, 7-sentabr, “Idil” gazetasi)kabi kichkina shaharlardagi gazeta-jurnallar faoliyati haqida yozar ekan, S.Sunchalay va S.Ramiyevlar “Idil”ning, Abdulla To‘qay “O’qlar”ning muntazam va faol qatnashchilari ekanligini ta’kidlaydi. Jurnallardan “Ong”, “Tarbiya”, “Yashin”, “Yalt-yult”, “Sho‘ro”, “Cho‘kich”, “O’qlar”, “Tarbiyatul atfol” kabilarni keltirar ekan, “Sho‘ro”ni bular ichida eng mashhuri deb belgilaydi. U 1908-yildan 1918-yilgacha Orenburgda har oyda ikki marta, jami 240 soni chiqqanligi, jurnalning muassisi aka-uka fabrikantlar Zokir va Shokir Ramiyevlar ekanligi, unga ma’rifatparvar va din olimi Rizoiddin Faxriddin muharrirlik qilganligi haqida ma’lumot bilan tanishtiradi. B.Qosimov jurnalning ahamiyatini jadidchilikning g‘oyaviy asoslariga, milliy uyg‘onish jarayonining kundalik masalalariga e’tibor qaratganligida deb biladi. Tadqiqotchi Sh.Sootovaning “Sho‘ro” jurnalining 240-sonining umumiy mundarijasi haqidagi ma’lumotlar[6.B.56]idan jurnal materiallari janriy va tematik jihatdan rang-barang bo’lganligi haqidagi xulosaga keladi.

B.Qosimov Turkiston matbuotini 1905-yil manifestidan ilhom olib, qisqa muddatda katta bosqichni bosib o’tgani hamda turkiy dunyoning e’tiborli davralari nazariga tushganligini aytib o’tadi. Buning ilk e’tirofchisi Cho‘lpox ekanligini qayd etadi.[7.B.2] Olim Abdulla Avloniyning “Burungi o’zbek vaqtli matbuotining tarixi” maqolasi orqali “1905-1917-yillar oralig‘ida o’lkada o’zbek tilida 22 ta gazeta, 8 ta jurnal, nashr etilgani” [6.B.58]haqidagi faktik ma’lumotlarni berib o’tadi. Bu esa jadid matbuotining davr nuqtayi nazaridan rivojlanib borayotgani va o’lkada gazeta va jurnal o‘quvchi ziyoli qatlamning shakllanib borayotganining belgisi edi. Jadidchilik g‘oyalari matbuot yordamida atrofga yoyila boshlanishi jamiyatdagi barcha sohalarda ulkan o‘zgarishlar bo‘lishiga, yangiliklar yaratilishiga yo’l ochgan edi.

B.Qosimov tadqiqotlarida ilk o’zbekcha gazeta sifatida “O’rta Osiyoning umr guzarligi” bo’lganini belgilagan holda Avloniyni bu gazetaga e’tibori tushgani va uni “bir oz hur fikrli” deya e’tirof etganligini qayd etadi. Olim 1906-yilda Ismoil Obidiy muharrirligida chop etilgan “Taraqqiy”ni ilk o’zbek milliy gazetasi sifatida tarixga kirganligini ta’kidlar ekan, u nashr etilgan 27-iyun sanasi O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qarori bilan “Matbuot kuni” deb e’lon qilinganini aytib o’tadi. Demak, bu gazetaning jadidchilik faoliyatidagi o’rnii ham ayricha bo’lgan, aynan, milliy tafakkurimizni boyituvchi nashr manbasi sifatida tarixda nom qoldirgan. Xalq orasida ham “elning eng suyib o‘qiydurg‘on”(Abdulla Avloniy) gazetasi o‘z davrida katta shuhrat qozonganligini, mashhur Abdulla To‘qayning ushbu gazetadan xabardorligi, Ismoilbekning “Taraqqiy” nomli maqola yozib, toshkentlik hamkasblarini qutlagani, gazetani A.Avloniy va Munavvarqorolar ham materiallar bilan ta’minlaganligi kabi dalillarni keltiradi.[8.B.69]Bu tarzdagi kuzatuvlar o‘quvchiga davr adabiy-ma’rifiy hayotini teran anglash imkonini beradi. 1906-yilning 6-sentabridan chiqa boshlagan “Xurshid” gazetasi Abdulla Avloniy, Fansurullobek Xudoyorxonov, Muhammadxon Podshoxo’jaev,



aka-uka Komilbek, Karimbek Norbekov kabi yoshlarni o'z atrofiga jamlagan edi. B.Qosimov "Xurshid" gazetasi siyosiy masalalar bilan ham faol shug'ullanganligiga urg'u beradi. Gazetaning 6-sonida bositgan Behbudiyning "Xayrul umuri avsatuh" maqolasini tahlil qilar ekan, Chor hukumatining mustabid siyosati, vaqflarning tortib olinishi, madrasalarning xarob qilinishi, rus mujiklarini ko'chirib keltirish siyosati, mahalliy xalqning kambag'allashib, mulk va davlatning yahudiy hamda armanilarga qolishi butun millatning ayanchli ahvoli sifatida baholanganligini e'tirof etadi. Bunday jasorat o'sha davr uchun juda katta voqelik edi. Publisistikada jamiyatga bu tarzda siyosiy baho berilishi jadidlarning yuksak siyosiy ong va madaniyat egasi ekanini ko'rsatadi.

Olim matbuotdagagi bunday chiqishlar uzoq davom etmaganligi, 1907-yilning 1-dekabridan "Shuhrat" gazetasi, qolaversa, "Xurshid" gazetasining tez fursatlarda yopilishini ko'rsatib o'tib.[9.B.110]. ularning ortidan yana yangi gazetalarning chop etilishini katta muvaffaqiyat deb biladi.

B.Qosimov ba'zi matbuotshunoslarning "jadid adabiyotining dastlabki davrida chor hukumati so'z, matbuot erkinligi cheklangani natijasida o'rtada uzilish yillar bo'lgan" [10.B.62]ligi haqidagi qarashlarini tasdiqlagan holda matbuotning keyingi taqdiri va uning qayta shakllanish yillarini 1913-yildan deb belgilaydi. Turkistondagi gazeta va jurnallar faoliyatini yangitdan tug'ilishini Behbudiyning sa'yi harakatlari bilan bog'laydi. Ya'ni Behbudiy muharrirligidagi "Samarqand" gazetasi o'zidan keyin ko'p "jarida" larga doyalik qilganligini qayd etadi. Olim mazkur gazeta jadid "maslakdosh"larni, xususan, Siddiqiy Ajziy, Hoji Muin, Nusratulla Qudratulla, Saidrizo Alizodalarni bir maydonga jam' qilganligini ta'kidlash bilan uning o'z davrida yuqori mavqe'ga ega bo'lganini ta'kidlaydi.

Jadidlarning yana bir mashhur gazetasi "Sadoyi Turkiston" edi. U haqda professor B.Qosimov 1914-yil 4-apreldidan chiqqanligi, gazetaning har bir sonida jadidlarning yetakchilaridan bo'lmish Avloniyning she'r yoki maqolasi bositishi, Munavvarqori, Miskin, Xislat, Tavallo kabi toshkentlik ijodkorlarning she'rlari, Samarqanddan Vasliy, Hoji Muin, Farg'onadan So'fizoda, Hamza, Cho'lpon, Lutfulla Olimiy, Ibrohim Davron kabi qalam ahillarining asarlari chop etilganini, qo'yingki, gazeta qisqa muddatda barcha jadid ijodkorlarini atrofiga birlashtirgan yetakchi nashrga aylanganligini, moddiy yetishmovchilik tufayli gazetaning 66 - sondan keyin to'xtatilganini e'tirof etadi.

Keyinroq yana qator gazetalar – Obidjon Mahmudovning "Sadoyi Farg'ona" gazetasi, Munavvarqorining "Najot", A.Battolning "Sho'royi islom", Avloniyning "Turon", Fitratning "Hurriyat", Zaki Validiyning "Kengash", B.Soliev, A.Zohiriyning "El bayrog'i", K.Bakirning "Ulug' Turkiston"; "Ishtirokiyun", "Qizil bayroq", "Turkiston", "Mehnatkashlar tovushi", "Buxoro axbori", "Mehnat bayrog'i", "Farg'ona" kabi partiya matbuoti deb nomlanuvchi nashrlar dunyo yuzini ko'radi[6. B.63]. Bular orasida "Hurriyat"ni adabiy kuch-quvvati bilan, "El bayrog'i"ni Turkiston mustaqilligi yo'lidagi kurashning yorqin sahifasi bo'lган muxtoriyat g'oyalarini ifoda etganligi bilan alohida ajralib turuvchi gazeta deb baholaydi.

Turkistonda birinchi chop etilgan jurnal "Oyna" edi. Bu haqda olimning tadqiqotlarida Behbudiyning g'ayrati va tashabbusi bilan 1913-yilda chop etilgani, jami 68 son, 1720 sahifa ekan, milliy g'oyalarning tarqalishida muhim rol o'ynagani, o'zbek adiblarinigina emas, umumturk olamining eng yaxshi qalam egalari bilan tanishtirib borganligini e'tirof etadi. Olimning qarashlaridan jadid matbuoti jadid adabiyotini keng tarqalishi uchun vosita bo'lib xizmat qilganligi haqidagi xulosani tuyamiz.

Bobning 1-faslida ham yengil ishora berib o'tganimizdek, til masalasi bosh masalaga aylangan edi. Tabiiyki, til, imlo masalasi bu davrda chop etilgan gazet va jurnallarning bosh mavzusi bo'lib qolgan edi. B.Qosimov matbuotda e'lon qilingan maqolalardagi til bilan bog'liq masalalarni tahlilga tortar ekan, ular qay yo'sinda yozilishidan qat'iy nazar milliy tilning taqdiri uchun kurashish yo'lida bir mayoq bo'lib xizmat qilgani haqidagi fikrni ilgari suradi. Shuningdek, Boshqirdiston xalq shoiri Sayfi Qudashning xotiralarini eslar ekan, 1915-1916-yillarda Ufadagi "Oliya" [11.B.105]. madrasasida til masalasiga oid katta bahs bo'lib o'tganligini eslatadi. Qozoq va tatar talabalari o'rtasida darsliklar tili masalasida kelishmovchiliklar yuzaga chiqadi. 1913-yildan Sh.Babich muharrirligidagi "Porloq" nomli qo'lyozma jurnal chiqar edi, unga taqlidan qozoq talabalari "Sadoq" jurnalini chiqaradilar. Bu esa katta noroziliklarga sabab bo'ladi. Muhokama yig'ilishini Ziyo Kamoliyning o'zi olib boradi. Bu masala hatto matbuotga ko'chadi.[12.C.41-43] 1916-yil "Ong" jurnalining 5-sonida O.Ibrohimovning



“Tillari boshqa bo‘lsa-da, ko‘ngillari - bir” nomli maqolasi bosiladi. Maqolaning asosiy yo‘nalishi Gaspirinskiy tomonidan o‘rtaga tashlangan barcha turk xalqlari uchun “umumiyligini va adabiy bir lison” g‘oyasining ilmiy va amaliy noto‘g‘riligini ko‘rsatishga qaratilgan edi. Qolaversa, O.Ibrohimov Istanbulda usmonli, Kavkaz(Boku) adabiyotlarining mustaqil, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lganligini misollar bilan isbotlab beradi. Bu kabi yondashuvlar B.Qosimovda Turkistonda ham Samarqand, Toshkent va Farg‘ona markazlarida o‘sha yerning havosi va tuprog‘i bilan sug‘orilgan matbuot va adabiyotning shakllanganligi, bu yerda ham alohida milliy til xususiyatlari ustuvor bo‘lganligi haqidagi fikrni tug‘diradi. Ko‘ringanidek, XX asr boshlari davriy matbuotlarda chop etilgan maqolalarning aksariyati, xususan, til masalasiga oid maqolalar muammoli adabiy-tankidiy maqola shaklida paydo bo‘lgan. Ya’ni til masalasi birinchidan, davr adabiy jarayonining muhim masalalaridan biri sifatida tankidchilikning bosh mavzusiga aylangan edi, ikkinchidan, maqolalardagi manzara keskin ruhda edi. B.Qosimov esa davr tankidchiligidagi ahvolni taxlil etar ekan, masalaga mummoli vaziyat nuqtai nazaridan yondoshadi va umumlashma xulosa chiqaradi.

B.Qosimov milliy-adabiy til uchun kurash hamisha ilg‘or o‘zbek ziyyolilarining diqqat markazida turganligi, jumladan, Avloniy ham o‘z asarlarini “Turkiston shevasinda” yozganini e’tirof etadi. Mirmuhsin ham o‘z maqolasida tatar tiliga turkiy tilni qiyoslar ekan, “ona tilimiz ila taraqqiy topmog‘imiz kerak” deya tilni vijdon, or-nomus masalasi darajasiga ko‘taradi. Professor B.Qosimov jadid adabiyotining shakllanishi va taraqqiy etishida til borasidagi bunday fikr-mulohazalar muhim ahamiyatga ega ekanligi va jadidlar millatning rivojida tilning o‘rnini to‘la anglab yetishganligini ta’kidlaydi.

Tilga e’tiborsiz millatning ham kelajagi barboddir. Chunki har qanday millatning ma’naviy merosi, ajdodlarning avlodlarga qoldirajak ma’naviy merosi, tarixi va adabiyoti ham til yordamida kelajak vorislarga yetkaziladi. Jadidshunos B.Qosimov Ismoilbekning “Til va mas’uliyat” maqolasini tahlil qilar ekan, turkiy xalqlarning tillari va shevalari bir-biridan farqlanishiga to‘xtalib, yagona adabiy til masalasini o‘rtaga qo‘yadi. Ruslarda Lomonosov, Jukovskiy, Pushkin, Turgenev kabi adiblar, mutafakkirlar adabiy til uchun umr bo‘yi kurashganligi, arablarning ko‘zga ko‘ringan allomalari til birligi uchun, nemislar umumiyligini til uchun intilganligini aytib o‘tadi. Millatning milliy mustaqillagini ta’min etadigan turli-tuman mutaxassislar ilmiy-madaniy muassasalar uchun maorifga xizmat qiladigan yagona adabiy til bo‘lmash ekan, millat ozod bo‘la olmasligini ta’kidlaydi.

Jadidlar tomonidan chop etilgan “Taraqqiy” gazetasida 1909-yilda Alibek Husaynzodaning “Turklik - askarlik” maqolasini tadqiq etar ekan, professor Begali Qosimov yozuvchining til materiali asosida muhim bir fikrni ilgari surganligini qayd etadi. “Buyruq maylini anglatuvchi ayrim fe’llarimizda 4-5 qavatli amr ma’nolari bor ekan (Masalan, ur, urdir, urdirt, urdirtir; chiq, chiqar, chiqart, chiqartdir)ki, boshqa tillarda uchramas ekan. Bu hol ko‘p bosqichligi esa davlat idora tizimida eng ko‘hna zamonalardan buyon mansab-martabalar silsilasining qat’iy intizomi subordinatsiyasiga amal qilinib kelinayotganligiga dalil ekan. Masalan, qo‘sish boshligi askarlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Qal’aga hujum eting!” demaskan, sarkardalariga “Etdirtiring!” derkan va bu buyruq poyama-poya mingboshi-yuzboshi bo‘ylab tushib kelarkan”. [13.B.123] Demak, birgina so‘zning jamiyatdagi o‘rni, uning insoniyat hayotiga ta’siri shunchalar ahamiyatli ekanki, jadidlar millatning taraqqiyoti, yashash va uni saqlab qolish kafolatini ham milliylikda ko‘rib, til muammosini birinchi o‘ringa qo‘ydilar. Alibek Husaynzoda har bir millatning tili uning hayoti, fikri, ruhining oynasi ekanligini aytib o‘tadi.

B.Qosimov vaqtli matbuotda chop etilgan til, adabiyot va ijtimoiy hayot bilan bog‘liq turli mavzudagi maqolalarni, tanqidiy chiqishlarni mantiqiy izchillik bilan tahlilga tortadi. Behbudiyning “Tanqid saralamoqdur” maqolasini “Navoiydan keyingi bir necha asrlik sukunatdan so‘ng bu sohaning xos xususiyatlarni tayin etib, adabiyotda tenghuquqlilik masalasini o‘rtaga qo‘ydi”, [14. B.22] deya baholaydi. B.Qosimov jadid adiblarining ijtimoiy-siyosiy, adabiy-estetik qarashlari xususida asosli mulohazalarni ilgari surish uchun vaqtli matbuot sahifalarini jiddiy o‘rganadi. Vaqtli matbuotdagagi maqolalarning aksariyatida ijtimoiy fikr uyg‘unligini “shaxsiy har qanday cheklashdan ijtimoiy adolatgacha bo‘lgan masalalar adabiyotning kun tartibiga qo‘yilgan”likda izohlaydi.

Demak, B.Qosimov ilmiy-ijodiy faoliyatida XX asr adabiyotini yoritish doirasida jadid ijodkorlarining hayoti va ijodini o‘rganish bilangina cheklanmadidi. Ularning hayot yo‘li, ijodiy merosi vositasida millat



taqdiri, Vatan muammolari, uning taraqqiyoti, inson va jamiyat o'rtasidagi uzviylik masalalarini tahlil etishni davriy matbuot xodisalarini kuzatish orqali amalga oshirdi va bizningcha, bu yo'lni tahlil va tadqiqning o'ziga xos yo'nalishi darajasiga ko'tara oldi. Ya'ni domla murakkab adabiy jarayonni boshidan kechirgan jadid adabiyotini vaqtli matbuot bilan uzviylikda kuzatdi. Bu davrning ijtimoiy-siyosiy, adabiy-madaniy hayoti, yangi fikr, yangi g'oyalar aynan matbuotda aks etganligi, ijodkorlarning charxlanishida ham matbuot asosiy vosita bo'lib xizmat qilgani uchun ham olim ularni asosiy manba sifatida sinchiklab o'rganadi. Domla ommaviy axborot vositalarini jadid adabiyotining asta-sekin rivojlanib, taraqqiy etib borishi va xalqning ijtimoiy-estetik tafakkuri o'sib borishidagi bosh omil sanagani bois o'z tadqiqotlarida vaqtli matbuot materiallaridan o'rinli foydalanish masalasiga alohida urg'u beradi. U jadid matbuoti haqidagi fikrlarini quyidagicha umumlashtiradi:

- jadid matbuoti XX asr boshidagi Turkistonning ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi yangilanishning o'ziga xos bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ldi va millatning uyg'onishida muhim rol o'ynadi;
- jadid matbuotining yuzaga kelishida yoshlarning o'rni alohida bo'lib, o'lkada avj olgan ayrim salbiy odatlarga nuqta qo'yish, xalqni milliy birlik, ma'rifat hamda mustaqillik bayrog'i ostida jipslashtirish taraqqiyarvarlarning intilishlarini yuzaga keltirdi;
- Turkiston matbuot vositasida qardosh millatlar turkiy xalqlar madaniyatiga yaqinlashdi va o'z taqdirini birga ko'rdi, o'tmishning achchiq tajribalaridan saboq chiqarishga kelajak uchun bir jon, bir tan bo'lib, kurashish zaruriyatiga ishonch hosil qildi. "Vaqt", "Tarjimon", "Ong", "Sho'ro" kabi Kavkaz va Volgabo'yida chiqib turgan, chor hukumatining mustamlakachilik tuzumiga qarshi kurashda katta tajribaga ega bo'lgan gazeta-jurnallar Turkiston jadid matbuotining oyoqqa turib olishida hamkor va hamdast bo'ldilar;
- O'zbek jadid matbuoti yangi o'zbek adabiyotining shakllanishi va taraqqiy topishida oltin beshik vazifasini o'tadi. Behbudiydan Cho'lpongacha bo'lgan jadid adabiyotining barcha vakillari fikrlarini ham, qalamlarini ham mana shu ilk gazeta-jurnallarimizda charxladilar;
- Jadid matbuotining eng muhim xizmati millatni uyg'otish va mustaqillik uchun tayyorlash edi. Matbuot buni sharaf bilan bajardi.[6.B.64]

B.Qosimov hodisaga baho berishda, u bilan bog'liq jihatlarni jadid publisistikasidan topadi va unda aks etgan mazmun-mohiyatni, milliy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy g'oyaviy belgilarni ko'rsatib beradi va olim sifatida tahlil etadi. Ularning yoshlarga ta'sirini alohida e'tirof etadi. Bu maqolalar Turkistonni bosqin va tanazullarga qarshi umumturk istiqlolchilik harakatlariga qo'shilib, najotni faqat birlikda ko'rgan jadidlarning tarix va o'zlikni anglash g'oyalarini o'z chiqishlarida ifoda etishda mayoq vazifasini o'taganligi haqidagi aniq xulosaga keladi. Bizningcha, bu kabi teran xulosalar nafaqat domlaning faoliyat ko'rsatgan yillarda, balki bugun uchun ham yangi, XX asr adabiy jarayonining muayyan bir qismini to'ldiradigan darajada salmoqga ega.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Назаров Бахтиёр, Расулов Абдуғафур, Ахмедова, Шоира, Қахрамонов Курдош. Ўзбек адабий танкиди тарихи: - Тошкент: Тафаккур, 2012 – Б.26
2. Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётини ўрганишнинг долзарб масалалари / Истиқлол даври адабиётшунослиги. Мақолалар тўплами. – Тошкент, 2013. – Б. 53.
3. Қосимов Б.Миллий уйғониш:жасорат, маърифат, фидоийлик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 51.
4. Гайнуллин М. X.Татарская литература XIX века. – Казань, 1975. – С.198-200.
5. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидоийлик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 53-54.
6. Қосимов Б.Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидоийлик: Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 56-58-63-64. Бу ҳақда қаранг: Ш.Соатова. Ризоиддин Фахриддин ва Туркистонда жадидчилик.(“Шўро” журнали материаллари асосида)диплом иши, қўлёзма, Тошкент, 1999.



Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти кафедрасида сақланади.

7. Чўлпон. Туркистонда матбуот//Жамият ва бошқарув, 1998,2-сон.Нашрга тайёрловчи Т.Тоғаев.
8. Таржимон,1906. № 69; Абдулла Тўқай. Асарлар, 4 томлик, 3-том, Қозон, 1976, -Б.49,391. Қосимов Б.Ҳаёт кўзгуси.(адабий-танқидий мақолалар),Тошкент: Faфур Гулом, 1984.
9. Миллий уйғониш. –Тошкент: Университет, 1993. – Б. 110.
10. Абдуазизова Н. “Ўзбекистон журналистикаси тарихи” / Кўчирма Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидоийлик китобидан олинди. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б 62.
11. “Олия” – 1906 йилда татар маърифатпарвари Зиё Камолий томонидан ташкил этилган замонасиининг энг прогрессив мадрасаларидан бири. Марказий Россия, Ўрта Осиё ва Кавказдан 8 миллатнинг вакиллари ўқиган. Европача таълим-тарбияга катта эътибор берилган.Ундан истеъдодли адиблар, юзлаб тараққийпарвар журналистлар, педагоглар етишиб чиққан. (таъкидлар Б.Қ. тегишли, Излай-излай топганим, - Б. 105.)
12. Сайфи Қудаш. Незабываемые минуты. – Уфа, 1962. – С. 41-43.
13. Қосимов Б. Ўзбек адабиёти ва адабий алоқалари тарихи. – Тошкент: Фан ва технология, 2008. – Б. 123.
14. Қосимов Б. Маслакдошлар. – Тошкент: Шарқ,1994. – Б.22.

